

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ
VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITET

REFERAT

Mavzu: Qishloq xo'jalik hayvonlarini ekstererini
o'rganish

Tekshirdi: _____

Bajardi: _____

TOSHKENT-2013

Qishloq xo'jalik hayvonlarini ekstererini o'rganish

Mollarning tashqi tana tuzilish shakli – ekstererini o'rganish bilan ularning xususiyatlari va belgilari aniqlanadi. Eksterer orqali mollarning konstitusiyasi, sog'lomligi va mahsuldorligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

«Eksterer» so'zini ilk bor Klod Burjel 1797 yili o'zining ilmiy ishlarida keltirgan. Hayvonlarni tashqi ko'rinishiga qarab baholash va tanlash ishlari K.Burjelga qadar ham amalga oshirilgan. Hayvonlar ekstererini baholashda quyidagi usullar mavjud:

Ko'zda chamalash – ekstererga baho berishdagi asosiy usuldir. SHu yo'l bilan malakali mutaxassis hayvonlarning konstitusiyasiga xos xususiyatlarini hamda salomatligini tez va to'g'ri aniqlaydi.

Tana qismlarini o'lchash – hayvonlarning tanasi o'lchanadi. Ilmiy tadqiqot ishlarida hayvonlar tanasining 52 o'lchovi olinib, zootexniya – seleksiyasi ishida 18 va mollarni naslchilik kitobiga yozishda esa 5 o'lchov kifoya qilinadi. Bu usulda faqat mollar tanasining bo'yi, eni, uzunligi, ayrim qismlari va a'zolarining ham bu boradagi ko'rsatkichlari aniqlanadi. Mollar tana o'lchovlarini olishda tasma (lenta), sirkul va o'lchov tayoqchasidan foydalaniladi.

Indeksklarini aniqlash – orqali bir-biriga munosabatli o'lchovlarning nisbati topilib, tana va uning ayrim qismlarini qanchalik rivojlanganligi aniqlanadi. Jumladan, tana qiya uzunligi ko'rsatkichi 100 ga ko'paytirilib, so'ngra yag'rin balandligi ko'rsatkichiga bo'lsak salmoqdorlik indeksi aniqlanadi.

Grafik usulda – bir guruh mollardan olingan tana o'lchov ko'rsatkichlari 100 foiz hisobida olingach, boshqa bir necha mol guruhlari o'lchovlarining birinchi guruh mollari o'lchoviga bo'lgan nisbati grafikka tushirilib, o'zaro taqqoslanadi.

Suratga olish usuli – ayniqsa mahsuldor mollar uchun qo'l keladi. Bunda qo'shimcha ravishda hayvonlar ekstereri va tananing ayrim qismini suratga tushirib, ular to'g'risida doimo tasavvurga ega bo'linadi.

Chorva mollarini umumiy ko'rinishiga, holatiga va ayrim muchalarining rivojlanishiga qarab tegishli (balli) shkala bo'yicha baholanadi. Bunda sigirlarga 10 ball beriladi.

jadval.

Sigirlarni ekstereri va konstitusiyasiga qarab baholash

Umu miy rivojlanishi va muchalari	Baholashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar	all
Umu miy ko'rinishi va rivojlanishi	Tana qismlarini tuzilishi, shu zotga mansubligini, kons Titusiyasining mustahkamligi	
Elini	Hajmi, kattaligi, shakli sut bezlari, elinining rivojlanganligi va hokazo	
Oldin gi va orqa oyoqlari	Mustahkamligi, oyoqlarini qo'yib turish holati, tuyog'ining mustahkamligi va uning shakli.	
Jami 10		

1 - topshiriq. Ko'zda chamalash usulidan foydalanib sigirlarni baholang va natijalarni jadvalga yozing.

jadval.

Olingan bahosi va yo'nalishi

sut	go'sht	s ut va go'sh t			
Um umiy ko'rinishi	Tana tuzilishining proporsionalligi, konstitusiyasining mustahkamligi, zotning xarakterli belgilarining ko'rinishi	3			
Elin lari	Elinining hajmi, sut venalari, oldingi va keyingi so'rg'ichlari tanasiga yopishib turganligi, so'rg'ichlarining bir tekis rivojlanishi	5			
Oldi ngi va keyingi oyoqlari	Mustaxkamligi va qo'yilishi, tuyog'ining shakli va mustahkamligi	2			
	Jami	1 0			

Kallaning shakli va tuzilishiga qarab, hayvonning suyakdorligini bilish mumkin. Jumladan, sersut zotli sigirlarning kallasi o'rtacha, engil va qotmadan

kelgan, eniga kam rivojlangan hamda chuqurroq shaklda bo'ladi. Buqalarning kallasi biroz dag'al. Go'shtdor zotli sigirlarning kallasi salmoqli, bosh qismi keng va qisqa, peshonasi ancha keng.

Bo'yin. Hayvonlarning jinsi va mahsuldorlik yo'nalishiga qarab, o'zgacha bo'ladi.

Sergo'sht hayvonlarning bo'yin muskullari yaxshi rivojlangan kalta va enli bo'ladi.

Elinni baholashda uning shakliga, katta va kichikligiga, tuzilishiga, so'rg'ichlarining joylashishi va rivojlanganligiga hamda sudor venalarining yaqqol ko'rinib turishiga e'tibor beriladi. Sigirlarda quyidagi elin shakllari mavjud: vannasimon kosasimon, yumaloqlashgan hamda echkisimon. Vannasimon va kosasimon elinlar katta hajmli bo'lib, sermahsul sigirlarga xos bo'ladi va ular eng maqbul shakllar hisoblanadi.

Normadagi elin so'rg'ichlari silindrik shaklida, uzunligi esa 6-8 santimetr bo'lishi kerak. Boshqa shakldagi elin so'rg'ichlari mashinada sog'ishga yaroqsiz bo'ladi.

Go'sht yo'nalishidagi qoramollarning ekstereri o'ziga xos go'shtdor bo'ladi. Tanasi muskullar bilan tig'iz to'lishgan. Orqasi keng, qovurg'alari egilgan go'shtdor, kallasi go'shtdor, bo'yni kalta, yo'g'on va keng, elka va ko'krak qismiga tekis ulangan. Oyoqlari kalta mustahkam, keng qo'yilgan.

jadval.

Buqalarni ekstereri va konstitusiyasiga qarab baholash.

Umumiy rivojlanishi va ko'rinishi	Baholashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar	all
Umumiy ko'rinishi va rivojlanishi	Tana tuzilishining mutanosibligi, konstitusiyasining pishiqligi, zot xususiyatlarining	

	ifodalanganligi, erkaklik tipining ifodalanganligi, muskullari, suyaklari	
Muchalari	Boshi, bo'yni, ko'ragi, yag'rini orqasi, beli, tanasining keyingi qismi orqa qismi	
Oldingi va orqa oyoqlari	Oldingi va orqa oyoqlarining baquvvatliligi va qo'yilishi, tuyoqlarining baquvvatliligi va shakli	
	Jami	0

Topshiriq. Ko'zda chamallab baholash usulidan foydalanib buqalarni baholang va natijalarni jadvalga yozing.

jadval.

Ko'rsatkichlar	Baholashda o'rganiladigan omillar	Y uqori baho	O lgan bahosi
Umumiy rivojlanishi va ko'rinishi	Tana tuzilishining mutanosibligi, konstitusiyasining pishiqligi, zot xususiyatlarining ifodalanganligi,	4	

	erkaklik tipining ifodalanganligi, muskullari, suyaklari		
Muchala ri	Boshi, bo'yni, ko'kragi, yag'rini orqasi, beli, tanasining keyingi qismi orqa qismi	4	
Oldingi va orqa oyoqlari	Oldingi va orqa oyoqlarining baquvvatliligi va qo'yilishi, tuyoqlarining baquvvatliligi va shakli	2	
	Jami	1 0	

Adabiyotlar:

1. *A.G.Avizov, R.X.Xamrakulov, «Chorvachilikdan amaliy mashg'ulotlar» T.: «O'qituvchi», 1980.*
2. *T.X.Ikromov «Chorvachilik» T.: «O'qituvchi» 1996.*
3. *V.M.Kulikov, Yu.D.Ruban, «Umumiy zootexniya» T.: «O'qituvchi» 1980.*
4. *M.A.Mavlonov, E.Movlonov «Qoramolchilik» T.: 1980.*
5. *S.D.Dastqulov, A.Qaxxorov, «Chorva mollarini urchitish» T.: 1993.*
6. *R.Xamroqulov, K.Karibaev «Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish», T.: 1999.*
7. *SH.A.Akmalxonov, A.Rajabov, «Sut sog'uvchi operator kitobi» T.: «Mehnat», 1988.*
8. *U.N.Nosirov, «Qoramolchilik» T.: 2001.*
9. *U.N.Nosirov, «Fermer bo'laman» T.: «Mehnat», 2002.*